

TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TADQIQ QILISH.

Boyyigitova Sevara Ikromali qizi

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari, ularning pedagogik jarayon samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlariga ta'siri chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etishning psixologik, didaktik va axborot-kommunikatsion omillari o'rganilib, ularning ta'lim natijalariga kompleks ta'siri tadqiq etiladi va ilg'or texnologiyalarning qo'llanilishi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiya, pedagogik innovatsiya, raqamli ta'lim, ta'lim jarayoni, interfaol metodlar, kompetensiya, kreativ ta'lim, zamonaviy pedagogika.*

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimi katta o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Jamiyatning raqamlashtirilishi, ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi, global axborot almashinuvining kengayishi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab qilmoqda. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash - bu nafaqat zamon talabi, balki o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchini mustaqil fikrlashga, kreativ yondashishga va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimiy jarayondir. Innovatsion texnologiyalar - deganda ta'lim jarayonini interaktivlashtirishga xizmat qiluvchi yangicha metod, vosita, pedagogik yondashuv va raqamli texnologiyalar majmuasi tushuniladi. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarni tadqiq qilishning nazariy asoslari, turli modellarni taqqoslash, ta'limda samarali qo'llash shart-sharoitlari hamda pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilish mexanizmlari yoritiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish jarayoni ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Global miqyosda ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish, interaktiv metodlar va sun'iy intellektga asoslangan tizimlardan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda. Shu bilan birga innovatsion texnologiyalarni tadqiq qilish - o'quv jarayonini samarali qilish, pedagoglarning ish faoliyatini optimallashtirish va talabalar bilimni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar faol o'qitish imkoniyatini, individual yondashuvni, resurslarga kirishning kengayishini, innovatsion muhitni yaratish imkonini beradi. Ta'lim oluvchilar bilimni passiv qabul qilmay, interaktiv usulda o'rganadi. Bu texnologiyalar ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida samarali muloqotga zamin yaratadi. Shu bilan birga texnologiyalarning samaradorligi pedagogik yondashuv bilan uyg'unligi doimiy ravishda tadqiq etilsa ta'lim olish sifati yanada barqaror holga keladi. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ta'lim beruvchi va

ta'lim oluvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion texnologiyalar va faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi va talabalar ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday ta'lim inson ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Innovatsion texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Pedagogik innovatsiya - bu ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan, ilg'or tajriba va ilmiy yondashuvga asoslangan yangiliklar majmuyidir. Innovatsion texnologiyalar quyidagi nazariyalarga tayanadi:

- Konstruktivizm nazariyasi: O'quvchi bilimni tayyor qabul qilmaydi, balki faol ravishda yaratadi; shu bois interfaol metodlar samarali.

- Faoliyatga asoslangan yondashuv: O'quvchi faol ishtirokchiga aylanadi, o'qituvchi esa yo'lboshchi rolini bajaradi.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi: Ta'lim jarayonini raqamli platformalar va texnik vositalar bilan boyitish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar bilimni 30-50% ga chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. O'quvchi faol ishtirok etgan darslarda motivatsiya sezilarli ortadi. O'qituvchining dars jarayonini boshqarish malakasini kuchaytiradi. Darsning mazmunini boyitadi va vaqtni samarali ishlatishga ko'mak bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlaydi. Shuningdek innovatsion texnologiyalar darsni qiziqarli, tushunarli va zamonaviylashtirilgan shaklga keltiradi. Pedagogik innovatsiyalar quyidagi ilmiy metodlar orqali o'rganiladi:

1. Pedagogik kuzatish - dars jarayonida innovatsiyaning ta'sirini kuzatish bilan olib boriladi.

2. Tajriba sinov ishlari - innovatsion metodlarni sinab ko'rish bilan amalga oshiriladi.

3. Statistika tahlil - samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashdan iborat.

4. Diagnostik metodlar - bilim ko'rsatkichlari, kompetensiyalarni aniqlash yo'li bilan o'rganiladi.

5. Taqqoslash metodi - an'anaviy va innovatsion o'qitish farqlarini taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda o'qituvchilarning AKT ko'nikmalarining yetarli emasligi, texnik vositalarning yetishmasligi, internet tezligi va raqamli infratuzilma muammolari, o'quvchilarning motivatsiyasi pastligi, o'qituvchilarning an'anaviy usullardan voz kechishdagi qiyinchiliklari innovatsion texnologiyalarni joriy etishda uchraydigan muammolar sanaladi. Bu muammolarga yechim sifatida malaka oshirish kurslari, texnik bazani kuchaytirish, metodik qo'llanmalar yaratish, innovatsion

jarayonni bosqichma-bosqich joriy etish, xorijiy davlatlar ta'lim standartlaridan andozalar olishni keltirish mumkin.

XULOSA. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni tadqiq qilish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Innovatsion texnologiyalar nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchi va talabalarni faollikka, kreativlikka, mustaqil fikrlashga va kompetensiyalarni chuqur egallashga yo'naltiradi. Raqamli ta'lim, interfaol metodlar, yangi pedagogik yondashuvlar ta'lim sifatini tubdan yaxshilaydi. Shu bois innovatsion texnologiyalarni ilmiy o'rganish, tajriba-sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy etish ta'lim islohatlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xodjaye A. Pedagogik innovatsiyalar va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. - Toshkent, 2021.
2. Hasanov R., Mavlonova R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: TDPU, 2020.
3. UNESCO. Innovative Teaching and Learning Research Report. - 2019.
4. Anderson T., Bates A. Digital Learning Theory and Practice. - London, 2020.
5. Karimov B., Yo'ldosheva M. Interfaol metodlar va ularning qo'llash texnologiyasi. - Samarqand, 2018.
6. OECD. Future of Education and Skills:-Paris, 2021.